

INQILOBIY ROMANTISTLAR

Ibragimova Dilafruz Shuhratovna

"Amaliy Ingliz tili" kafedrası katta o'qituvchisi, FarDU.

Nuriddinova Gulnoza Ro'zali qizi

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi, FarDU.

Annotatsiya: Barchamizga ma'lumki, Fransuz inqilobi o'z davri uchun har taraflama rivojlanish yo'lini ochdi. Insonlarda hur fikrlik va dabiyot orqali dunyoni chuqurroq anglash imkoniyati paydo bo'ldi. Ushbu voqealar Ingliz adabiyotiga qaydarajada ta'sir ko'rsatganini mazkur davrda ijod qilgan Lord Bayron misoli orqali ushbu maqolada ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Bayron, romantizm, inqilob, adabiyot.

Kirish.

Yevropa, xususan, G'arbiy Yevropada XVII asrda boshlangan romantizm g'oyalari XVIII asrning so'nggi choragida g'oyat rivojlangan va o'z muhlislariga ega bo'lgan adabiy yo'nalish sifatida keng maydonga keldi.

"Fransuz inqilobi" - Fransiya ijtimoiy-siyosiy tizimining eng yirik o'zgarishi, bu mamlakatda eski tartib va mutlaq monarxiyaning yo'q qilinishiga va Birinchi Fransiya Respublikasining e'lon qilinishiga olib keldi.

1789-yilda boshlangan fransuz inqilobi romantizmga, romantik yozuvchilarga katta ta'sir ko'rsatgan va ularni demokratiya va inson huquqlari mavzularini muhokama qilishga ilhomlantirgan muhim voqea bo'lib, jamiyatning to'liq o'zgarishiga olib keldi. Xalq och va o'z ehtiyojlarini qondira olmay turgan bir vaqtda, yuqori tabaqa vakillari va zodagonlar hashamatli va isrofgarchilikka asoslangan hayot kechirardi. Mavjud vaziyat xalq qo'zg'olon ko'tarishiga va hukmron tabaqaning siyosiy hokimiyatiga bahram berilishiga olib keldi. Shu bilan "Tenglik, ozodlik va hurlik" shiori ostidagi fransuz inqilobi bo'lib o'tdi. Fransuz inqilobining ruhi butun Yevropaga, chunonchi, Angliyaga tarqaldi. Inqilob mavzusi- insonning yer yuzida mavjudligi, inson ongi erkinligi va hur fikrlik edi. Bularning barchasi Jorj Sand, Kolerij, Shelli, Bayron, Vordsvort, kabi romantistik shoirlar ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi va ularning ijodida yaqqol namoyon bo'ldi. Fransuz inqilobidagi shaxsiy ozodlik, hurlik, erkin yashash tamoyillari adabiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatdi, ayniqsa, romantistik adabiyotda namoyon bo'ldi. Chunki insonga hech qachon ziyon keltirmaydigan, moddiy ehtiyojlardan yiroqda bo'lgan xayolot nafaqat inson ongiga balki, inson ruhiyatiga ham o'ziga xos ozodlik baxsh etdi.

Fransuz inqilobi guvohiga aylangan romantizm vakillari o'z hukumatlari haqida fikr bildira boshlaydilar. Fransiyadagi kabi ozodlik haqida o'z asarlarida baralla kuylay boshlashdi. Ayniqsa, ingliz adabiyotida Bayron va Uilyam Vordsvort sezilarli darajada omma ongida ozodlik va tenglik haqidagi g'oyalarni rivojlantirdi.

Bayron shaxsiyati hamisha murakkab hisoblab kelingan. Bayron hech qachon hech nimaga aniq ishonch bildirmagan. "Men hech narsani rad etmayman ... lekin hamma narsaga shubha qilaman", - deb aytib o'tgandi shoirning o'zi. Keyinchalik esa aytadiki, "Men siyosatni soddalashtirib, barcha

mavjud hukumatlarni butunlay nafratga aylantirdim¹. Bayron na demokratiyaga, na tenglikka ishonadi, balki zulmning barcha shakllariga va hukmdorlarning insonni boshqarishga urinishlariga qarshi turadi. Bayron she'riyati o'z qahramonlarini kuchli qilish uchun chuqur fikrlashdan ko'ra, chuqur tuyg'uni o'zida mujassam etgan. Ko'pincha Bayron o'z qahramonlarini tabiat bilan to'liq uyg'unlikda tasvirlaydi, bu personajning o'zini dunyoning cheksizligida yo'qotishiga olib keladi. Fransiya inqilobi Bayronning e'tiqodlari va monarxiyaga qarshiligini shakllantirishda katta rol o'ynadi. Garchi inqilob davrida Bayron ancha yosh bo'lgan bo'lsada, uning qarashlari shakllanishida yosh uncha muhim rol o'ynamadi. Erta boshlangan hayot, zodagonlarga xos ta'lim va imtiyozlar qurshovida hayot kechirgan bu ajoyib shaxsiyat barchaning teng huquqli bo'lishini, imtiyozlar bekor qilinishining asosiy tarafdorlaridan edi.

Uning "Vido" she'rida keltirilgan misralar yuqoridagi isyonkorlik fikrlarining yorqin dalili.²

O'liklar sharpasi bo'ronlar oshib,
Qulog'imga xuddi nidoday kelar.
Qahramonlar ruhi yurar adashib,
Ona yurt ko'kida shamolday yelar.

Butun ijodiy faoliyati isyonkorlik, zulmga bo'yin egmaslik bilan yo'g'rilgan shoir. Butun sheriyyatini ingliz reaksiyalar kuchlariga qaratilgan ijtimoiy-siyosiy she'rlar bilan bezagan mohir zargar. Shuningdek, Bayronning "Don Juan" nomli 17 kantodan iborat she'ri, Jon Miltonning "Yo'qotilgan jannat" romanidan keyin Angliyada nashr etilgan eng muhim uzun she'rlardan biri hisoblanadi. Bayron 1819-yilda she'riyatning hayratlanarli tabiati bo'yicha o'zining doimiy nashriyotchisi bilan bahs-munozaralardan so'ng birinchi ikkita kantoni anonim ravishda nashr etdi. Bu vaqtga kelib, u yetti yil davomida mashhur shoir bo'lgan va u o'zi boshlang'ich kantolarni nashr etganida, ular ba'zi joylarda yaxshi qabul qilingan. Shundan so'ng she'r uning muntazam nashriyoti orqali jild-jild bosilib chiqdi.³ 1822 yilga kelib, jamoatchilik tomonidan ehtiyotkorlik bilan qabul qilish g'azabga aylandi va Bayronning noshiri asarni nashr etishni davom ettirishdan bosh tortdi. Asar keyinroq nashr qilindi.

Xulosa qilib aytganda, Fransiyada boshlangan inqilob nafaqat sanoatda balki adabiyotda ham yangiliklar kashf etdi. Adabiyot ihlosmandlari sevib mutolaa qiladigan, insonning tabiat bilan uyg'un ekanligini, moddiy ne'matlarsiz, hokimiyatlarning zulmsiz boshqaruvi haqidagi ozodlik nafasi ufurib turgan asarlar aynan shu davr adabiy muhiti natijasida yuzaga kelganligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, Mark ["Lord Byron's dig at William 'Turdsworth'". The Guardian](#). Retrieved 2 July 2014.
2. Stabler, Jane (1999). In Duncan Wu (ed.). *A Companion to Romanticism*. Blackwell. pp. 247–257. ISBN 978-0-631-21877-7.). "George Gordon, Lord Byron, Don Juan"
3. "Lord Byron (George Gordon)". Poetry Foundation. 30 December 2018. Retrieved 30 December 2018.
4. John Galt, [The Complete Works of Lord Byron, Volume 2](#), Baudry's European Library (1837) – Google Books cvii

¹ Marchand, Leslie A. (15 April 2019). ["Lord Byron"](#). Lord Byron | Biography, Poems, Don Juan, Daughter, & Facts. *Encyclopædia Britannica*. London: *Encyclopædia Britannica, Inc.*

² Bayron, (1808) "Vido" Hamid Olimjon tarjimai

³Stabler, Jane (1999) In Duncan Wu (ed.). *A Companion to Romanticism*. Blackwell. pp. 247–257. ISBN 978-0-631-21877-7. "George Gordon, Lord Byron, Don Juan"

5. D.Quronov, Z. Mamajonov, M.Sheraliyeva “Adabiyotshunoslik lug‘ati” (2013)
6. Hancock, Albert Elmer. The French Revolution and the English Poets: A Study in Historical Criticism. New York: Henry Holt and Company, 1899. Pp. 7, 45-79.
7. Marchand, Leslie A. (15 April 2019). "[Lord Byron](#)". Lord Byron | Biography, Poems, Don Juan, Daughter, & Facts. [Encyclopædia Britannica](#). London: [Encyclopædia Britannica, Inc.](#)
8. <https://medium.com/@rahmeliaprastamawati/poets-and-revolutionary-in-romanticism>.